

BOSHLANG'ICH SINFLARDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL QILISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

Qo'qon Universiteti Ta'lim fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi

Yo'ldasheva Qizlarxon Murodjon qizi

Ilmiy rahbar: Abduraxmonova Nigoraxon Akramali qizi

Ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda o'qitish metodikasi va ta'lim texnologiyalari, hozirgi zamon innovatsiyalaridan foydalanish, yangi ta'lim texnikalari, o'qitish samaradorligini oshirish bo'yicha fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy, innovatsiya, boshlang'ich ta'lim, metodika, texnika, o'quvchi.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar kontsepsiyasida tarbiyaviy tadbirlarni takomillashtirish zaruriyati, alohida ta'kidlangan: siyosiy tuzumning o'zgarganligi, yangicha iqtisodiy munosabatlarning shakllanib borishi, tarbiyaviy ishni yaxshilashda davr talabiga javob beradigan yangicha tamoyillari g'oyalar, ish uslubiyatlarini ishlab chiqish hamda o'qituvchining ijodkorlik faoliyatini qaytadan qurmoq lozimdir.

Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda

shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Dars mashg'ulotlarida o'yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O'yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o'quvchilarining o'yin-topshiriqlarni bajarishga o'rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog'liq bo'lishi kerak.

Ta'limda o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglash va shu fikrni og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o'rgatish masalasiga e'tibor qaratilgan bo'lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o'rin egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o'rganiladi. Bugungi kun o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tajribalarimiz asosida dars mashg'ulotlarida interfaol metodlarni qo'llash orqali ta'lim-tarbiya berish yo'llariga doir fikrlarimizni bayon etamiz. O'ylaymizki, u o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda hamkasblarimizga amaliy yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilarni o'z yo'nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirishdek mas'uliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko'makchilardan biriga aylanadi. Quyida sinflar kesimida ayrim mavzular asosida o'qitishning zamonaviy usullarini tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar beramiz. Siz undan ijodiy yondashgan holda foydalanasiz va birinchi prezidentimizning: "Har qarichi muqaddas bo'lgan ona yerimizga nisbatan farzandlarimizda g'urur va iftixor, sadoqat tuyg'ularini uyg'otish uchun biz bugun nima qilyapmiz, degan savolga javob izlab ko'raylik", - degan fikrlariga javoban ta'lim va tarbiya berishning zamonaviy usullarini tatbiq etish orqali ko'zlangan maqsadga erishishga o'z hissangizni qo'shasiz degan umiddamiz.

Tarbiyachining navbatdagi vazifasi bolalar jamoasini tashkil qilish, tarbiyalash va jipslashtirish borasidagi nazariy bilimlarni o'zlashtirib, ilg'or tajribalarga suyanib o'quvchilarni tarbiyaviy jarayonda o'rtoqlik-do'stlik, o'zaro hamkorlik, hamjihatlik, o'z-o'zini tarbiyalash va boshqarish kabi jamoatchilik sifatlarini tarbiyalash mahoratini o'zlashtirishdan iborat. Ular:

- sinfning boshlang'ich jamoasini tarbiyalash va ularda o'zaro munosabat aloqalarini yaratish;
- o'quvchilar kundalik faoliyatlarining hamma qirralarida jamoaga jipslashtirish;
- shaxsiy manfaatdan jamoa manfaatini yuqori qo'yishga o'rgatish;
- jamoada bir-biriga mehr-oqibatli, [muruvvat va sahiylik](#), do'stona hamkorlik mavjud bo'lsa, u katta tarbiyaviy kuchga aylanadi.

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilar jamoalari tashkil qilishda o'qituvchidai turli-tuman usul va vositalardan mahorat bilan foydalanish talab qilinadi:

1. O'qituvchi jamoa a'zolarini yangi sharoitga (maktabning I sinfidan boshlab) moslashuv davrida ularga ishonch, xurmat, xushmuomalalik, talablarni to'g'ri qo'ya bilish shu bilan birga o'quvchini tushunish va eshita bilish mahoratiga ega bulish talab etiladi;
2. O'quvchilar jamoasidagi etaklovchi kuch tayanch o'zagini tanlash;
3. Jamoa a'zolarining har birining kuchiga, qobiliyatiga qarab topshiriqlar berish;
4. Jamoada yangi an'ana, qonun-qoidalarni dastlabki kurtagini yaratish va unga amal qilish;
5. Jamoa istiqbolini davr talabi bilan moslashgan holda belgilash talab qilinadi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning tarbiyaviy ta'siri ko'p darajada o'quv jarayonini tashkil etish saviyasiga hamda o'quvchilar jamoasining xilma-xil ishlarni qanday yo'lga qo'yishlariga bog'liqdir. Sinfdan tashqari faoliyat majburiy dastur bilan chegaralanmaydi, balki yoshlar har xil o'quvchilarni ixtiyoriy ravishda birlashtiradi. Ularning tashabbusi asosida ishlarni amalga oshiradi, fanga qiziqtiradi, ularni xalqning madaniy hayoti muhitiga olib keladi. Sinfdan tashqari ishlar shaxsdagi ijtimoiy faollik, ijtimoiy ong hamda axloqiy odatlarni tarkib toptirishning eng muhim omilidir.

“Interaction” (inglizcha interaction – so‘zidan) tushunchasi sotsiologiya va ijtimoiy psixologiyada birinchi marta paydo bo‘ldi. Ramziy interaksionizm nazariyasi (amerikalik faylasuf J. Mead tomonidan asos solingan) shaxsning rivojlanishi va hayoti, inson tomonidan boshqa odamlar bilan aloqa qilish va o‘zaro ta'sir qilish holatlarida uning “men” ni yaratishi to‘g‘risida mulohaza yuritadi. Inglizcha-ruscha psixologik - tahliliy lug‘atga ko‘ra, “interact” - o‘zaro ta'sir qilish, Interakt, o‘zaro aloqada bo‘lish, bir-biriga ta'sir (ta'sir) qilish. Psixologiyada o‘zaro ta'sir - bu “biron bir narsa bilan (masalan, kompyuter bilan) yoki odam bilan kimdir bilan muloqot qilish yoki suhbat rejimida bo‘lish qobiliyati va ijtimoiy o‘zaro ta'sir - bu guruhdagi muloqot jarayonida shaxslar o‘zlarining xatti-harakatlari bilan boshqa odamlarga ta'sir ko‘rsatadigan jarayon. shaxslar, javob sabab.

K. Levin odamlarning munosabati va xulq-atvoridagi eng samarali o‘zgarishlarni individual kontekstda emas, balki guruhda amalga oshirish osonroq deb ta'kidladi.

Shu bilan birga, “interaktivlik”, “interfaol ta'lim”, “interfaol o‘qitish usullari va texnikasi” atamaları pedagogikaga oid maqola va asarlarda, o‘quv jarayonini teng huquqli ishtirokchilarning aloqasi, hamkorligi, hamkorligi sifatida tavsiflovchi darsliklarning bo‘limlarida paydo bo‘la boshladi. Ko‘pincha “interfaol ta'lim” atamasi axborot texnologiyalari, masofaviy ta'lim, Internet resurslaridan foydalanish, shuningdek, elektron darsliklar, ma'lumotnomalar, onlayn ish va

boshqalar bilan bog'liq holda tilga olinadi. Zamonaviy kompyuter telekommunikatsiyalari ishtirokchilarga haqiqiy sherik bilan "jonli" (interaktiv) muloqotga (yozma yoki og'zaki) kirishga imkon beradi, shuningdek foydalanuvchi va axborot tizimi o'rtasida Real vaqtda faol ravishda xabar almashish imkoniyatini beradi.

Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan ona tili, matematika, o'qish, odobnoma, tabiatshunoslik darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Chunki boshlang'ich sinfdanoq bolalarga savodxonlikni o'rgatish bilan birga axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari berib boriladi. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lim darslariga o'quvchilar qiziqishini oshirishga, o'z fikrini bayon etishga o'rgatish, mustaqil ishlash, fikrlab qaror chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish muhim o'rin tutadi. Bolalar boshlang'ich sinflardan «dars» degan muqaddas so'zdan bezib qolmasliklari uchun darslarda interfaol usullardan foydalanish tavsiya etiladi. Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o'zaro harakati ta'sir ostida bilimlarni o'zlashtirishni kafolatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu usullarni qo'llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Uning asosiy mezonlari - norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish, mustaqil o'qish, o'rganish, seminarlar o'tkazish, o'quvchilarni tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi kerak.

Interfaollik, bu – o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni, bundan o'quv- biluv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida dialog shaklida (kompyuter aloqasi) yoki o'qituvchi - o'quvchilarning o'zaro muloqotlari asosida kechadi. Interfaollik - o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, o'quvchi - o'qituvchi, o'quvchi - o'quvchi suhbatlarida sodir bo'ladi. Interfaol metodlarning bosh maqsadi - o'quv jarayoni uchun eng qulay muhit va vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratish. Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda bironta ham o'quvchi chetda qolmay, eshitgan, o'qigan, ko'rgan bilgan fikr mulohazalarini ochiq oydin

bildirish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. O'zaro fikr almashish jarayoni hosil bo'ladi. Bolalarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o'zaro do'stona munosabatlar shakllanadi. Interfaol ta'lim o'z xususiyatiga ko'ra didaktik o'yinlar orqali evristik (fikrlash, izlash, topish) suhbat - dars jarayonini loyihalash orqali muammoli vaziyatni hosil qilish va yechish orqali kreativ - ijodkorlik asosida axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish metodlarini o'z ichiga oladi.

Axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida ta'lim o'z navbatida kompyuter dasturlari yordamida o'qitish, media - ta'lim metodlaridan iborat. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, savodxonlik darajalari, shaxsiy tabiatlariga ko'ra didaktik o'yinlar orqali evristik suhbatlar loyihalashtirish asosidagi metodlar keng qo'llanilmoqda. Ta'lim jarayonlarida Interfaol o'yinli metodlar o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Interfaol o'yinlarning asosiy turlari: intellektual (aqlli) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bular o'quvchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, ma'naviy, ma'rifiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, bunyodkorlik, mehnat, kasbiy ko'nikmalarni rivojlanishiga yordam beradi. Bu metod o'quvchini ichki imkoniyatlarini ishga tushishiradi, o'ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikga yetaklaydi. Ayniqsa, unda atrof-muhit, hayotni bilishga qiziqish ortadi, uchragan qiyinchilik, to'siqlarni qanday yengish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.N.A. Abduraxmonova (2025). BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING IJODIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK KO'NIKMALARINING ROLI. Inter education & global study, (1 (1)), 15-21.

N.A. Abduraxmonova. "BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING IJODIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK

KO'NIKMALARNING ROLI" Inter education & global study, no. 1 (1), 2025, pp. 15-21.

2. Madinabonu Shuxratjon qizi, & Esonaliyeva Guluzra Komiljonova. (2023). INSON QADRI VA BARKAMOL AVLOD SHAKLLANISHIDA PEDAGOGIKANING O'RNI. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 788–789. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.717>

3. Komiljonova, G. N. qizi. (2023). FANLARARO BOG'LANISH ASOSIDA BOSHLANG'ICH TA'LIMNI AMALGA OSHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 198–201. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5505>

4. Abduraxmonova, N. (2022). BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINI METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOSINING PEDAGOGIK ZARURIYATI. *Science and innovation*, 1(B8), 2114-2121.

Abduraxmonova, N. "BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINI METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOSINING PEDAGOGIK ZARURIYATI." *Science and innovation* 1.B8 (2022): 2114-2121.

5. Diyoraxon, S., & Komiljonova, G. (2023). BOSHLANG 'ICH TA'LIMDA CHET EL O 'QUVCHILARINI BAHOLASH MEZONI VA SAMARALI TAQDIRLASH. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 783-785.

6. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). Bo 'lajak boshlang 'ich sinfi o 'qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 208-211.

Abduraxmonova, N. A. "qizi. (2023). Bo 'lajak boshlang 'ich sinfi o 'qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida." *Educational Research in Universal Sciences* 2.12: 208-211.

7. Nigoraxon, A., & Mohlaroy, A. (2024). boshlang'ich ta'limda o'quvchilar

ijodiy faoliyatini tashkil etish texnologiyasi. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*i, 3(1), 83-87.

Nigoraxon, Abduraxmonova, and Alijonova Mohlaroy. "boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini tashkil etish texnologiyasi." *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*i 3.1 (2024): 83-87.

8. Абдурахмонова Нигораксон. (2024). ИДЖОДИЙ ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА БО'ЛАДЖАК БОШЛАНГИЧ СИНФ О'КИТУВЧИЛАРИНИНГ ИНДИВИДУАЛЬНО-ШАКСИЙ СИФАТЛАРИ. *Университетская исследовательская база* , 55–58.

9. Kalendarova, Z. K. (2022). Innovative model of shaping students' creative thinking skills in primary education in the process of creating problem situations and its content. *INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE*, 11-137.

10. KALENDAROVA, Z. K. (2021). PRIMARY EDUCATION-THE FOUNDATION OF GENERAL SECONDARY AND HIGHER EDUCATION. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука*, (6), 350-332.